

INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINING XUSUSIYATLARI

Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri professor i.f.d.

kalmuratovb@mai.ru.

Tel: +99893-364-51-47

Joldasbaeva Uldaulet Jaksibay qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Ekonometrika yo‘nalishi 2 kurs talabasi

e-mail: uldauletojldasbaeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yurtimiz mintaqalari iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari va ularni innovatsion boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek mintaqalardagi ishlab chiqarish tarmoqlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion rivojlantirish orqali takomillashtirish va unda innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining mohiyati haqida so‘z yuritilib, mintaqalarda innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlari tahlil qilingan va uni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *mintaqa, innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, innovatsion infratuzilma.*

I. KIRISH

Dunyoda innovatsion boshqaruv tizimi iqtisodiy rivojlanishning strategik omili hisoblangan bir vaqtda, innovatsion faoliyat infratuzilmalarini tashkil etish, innovatsion jarayonlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish, innovatsion markazlarni boshqarishni takomillashtirish, mintaqa innovatsion strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha konsepsiya va dasturlar qabul qilingan. Ammo innovatsion boshqarish amaliyotida mintaqalarda innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga kam e‘tibor berilmoqda.

Jahonda innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, jumladan, Buyuk Britaniyada mintaqalardagi innovatsion markazlarni davlat tomonidan boshqarish, Germaniyada innovatsion klasterlar tashkil etish, Janubiy Koreyada innovatsion infratuzilmalarni takomillashtirish, Shveysariyada innovatsiyalarni rivojlantirish uchun kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash shular jumlasidan[9]. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar mintaqalarida innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion salohiyatni oshirish strategiyalarini shakllantirish, mintaqani innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy ilmiy tendensiyalardan hisoblanadi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion boshqarish tizimining nazariy va uslubiy asoslari, ularni hududiy iqtisodiyot subyektlari hamda tarmoqlariga joriy etish muammolari Sh.Mustafaqulov, N.Q.Yo‘ldoshev, Sh.N.Zaynutdinov, X.T. Muxitdinov, A.M.Qodirov, M.A.Mahkamova, R.I.Nurimbetov, Sh.I.Otajanov va boshqalar tomonidan keng o‘rganilgan[5]. Xususan, Sh.N.Zaynutdinov innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasiga konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishni, A.M.Qodirov sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlantirish muammolarini[6], M.A.Mahkamova O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish masalalarini tadqiq qilgan[10]. Shuningdek, H.I.Nurimbetov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida innovatsiya faoliyati tuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligi va innovatsion salohiyatni oshirish muammolari o‘rganilgan[11].

Ammo yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda mamlakatimiz mintaqalarida innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan. Biz tadqiqot ishimizda mintaqalarda innovatsion boshqarishdagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda mintaqaning xususiyatlari inobatga olganmiz.

III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash kabi usullar qo‘llanildi.

IV. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Mamlakatimiz mintaqalarida innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni boshqarish va innovatsion faoliyat sohalarini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin mintaqalarda innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyasi takomillashmaganligi, innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi, innovatsion infratuzilmalarning yetarli emasligi va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan foydalanish samaradorligining pastligi innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish strategiyasi samaradorligini oshirish muammolarini batafsil o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [7].

Hozirda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi hamda tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi bozorlaridagi raqobatning kuchayishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish tizimini faollashtirish va uni yanada samarali tashkil etishga qaratilmoqda. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotini tarkiban yangilash, fan sig‘imkorligi yuqori bo‘lgan ustuvor sohalarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Bu esa, aholining tez o‘sib, o‘zgarib borayotgan ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, so‘nggi kashfiyot ishlanmalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlarining hayotiylik davrini barqaror o‘sib borishini ta‘minlovchi zamonaviy usullarni keng

ko‘lamda foydalanishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishda innovatsion boshqaruvni joriy qilish, jumladan mintaqalarning innovatsion faolligi hamda raqobatbardoshligini oshirish, hududiy ishlab chiqarish tuzilmalarini yangilash, tabiiy, mineral xom-ashyo, mehnat, investitsion va hududlarning boshqa resurslaridan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi[11].

Keltirilgan fikrlarning amalga oshirilishi mintaqalarni innovatsion rivojlantirish(dunyo)ni ta‘minlashga xizmat qiladi. Dunyo hozirda iqtisodiy tadqiqotlardagi dolzarb mavzulardan biri sanaladi va bu borada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan[13]. Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish o‘z ichiga jarayonlar bilan bog‘liq hamda tashkiliy va texnologik innovatsiyalarni, shuningdek ularni mintaqada innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun korxonalar faoliyatiga tadbir etish jarayonlarini qamrab oladi.


Dunyoda globallashtirish jarayonlarining keskinlashuvi mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ularni jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishini ta‘minlashni talab qiladi. Shuningdek dunyo global raqobatbardoshlikni oshirishning eng muhim shartlaridan biri sanaladi[14].

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish jarayonida yangiliklarni qabul qilmaslik, jahon ilmiy-texnik rivojlanish tendensiyalaridan uzilib qolish, ijtimoiy-iqtisodiy va tuzilmaviy-texnologik jihatdan orqada qolishga olib kelishi mumkin. Hanuzgacha ilmiy-innovatsion siyosatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi asoslari ishlab chiqilmagan, zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish samaradorligini oshirishni taqozo etuvchi tahdidlariga tarmoq boshqaruv organlari to‘g‘ri javob bera olmayapti[13]. Mamlakatda innovatsiyalarni tarmoqlarga tatbiq qiluvga ko‘maklashadigan tizimning amalda mavjud emasligi innovatsion iqtisodiyotni faol rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Jumladan, texnoparklar, bizes-inkubatorlar, kraudfanding maydonchalar va innovatsiyalarni infratuzilmaning boshqa zarur elementlari rivojlanishning boshlang‘ich bosqichidadir. Innovatsion infratuzilmani takomillashtirish uchun mintaqalarda BIG DATA-markazlar tashkil etish ma‘lumotlarni saqlashning yuqori texnologik vositalari, zamonaviy tezkor aloqa iqtisodiyot va davlat boshqaruvini samarali modernizatsiyalash,iqtisodiyotni raqamlashtirishni ta‘minlaydi. Innovatsion infratuzilma unda biznes-inkubatorlar, texnoparklar, texnologiyalarni tijoratlashirish markazlari singari maxsus bozorga yo‘naltirilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda kichik innovatsion va venchur korxonalar mavjudligini taqozo qiladi. Ilmiy-texnik g‘oyalari, texnologiyalar va ishlanmalar transferi va tijoratlashuvi tizimini rivojlantirish uchun Innovatsion rivojlanish agentligi huzuridagi ilmiy-amaliy markaz tashkil etilayotgan texnologiyalar transferti tizimida markaziy organga aylanadi. Umuman olganda mintaqani innovatsion boshqaruv acocida rivojlantirish uning raqobatbardoshligining eng muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning innovatsion muhitni shakllantirishdan iborat[14].

Zamonaviy sharoitda innovatsion rivojlanishning hal qiluvchi omillari quyidagilar hisoblanadi:

- innovatsion faoliyatni meyoriy-huquqiy tartibga solish;

- hududlarning ilmiy, texnik va ishlab chiqarish calohiyatining samaradorligi;
- mintaqaviy innovatsion ctrategiyaning mavjudligi va cifati;
- innovatsion jarayonlarni kadrlar bilan ta'minlash;
- innovatsion infratuzilmaning camaradorligi;
- mintaqaviy darajada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ucullari va boshqalar.



1-rasm. Innovatsion boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy elementlari[10]

Aslida, bu omillar mintaqaviy innovatsion tizimning holati va camaradorligini aniqlaydi. Mintaqaning innovatsion faoliyatning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmi innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli inctitutlar o'rtacidagi munosabatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Mintaqaning xususiyatlariga mos ravishda taraqqiyotga erishish uchun ilmiy va texnologik jihatdan


yuqori darajadagi sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini uzoq muddatga ta'minlash moddiy va tabiiy va recurclar calohiyatiga emas, balki innovatsiyalarga bog'liqligini ta'kidlaydi[15].

Innovatsiyalarning tashkiliy va iqtisodiy acolarini hicobga olgan holda, mintaqaning innovatsion rivojlanishining acociy maqadlari, ucullari va mexanizmlari taqdim etilishi lozim.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, mintaqaviy innovatsion boshqarishning acociy vazifalari quyidagilardan iborat:

- innovatsiya va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha mye'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;
- mintaqaviy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish;
- innovatsion markazlar, tadbirkorlik uyushmalari, biznes inkubatorlar faoliyatini, start-up loyhalarini tashkil etish;
- elektron hukumat va axborot-kommunikatsion texnologiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- mintaqaviy innovatsiya jarayonini yetuk bozor iqtisodiyotida o'z mavqeiga, innovatsion g'oyalarga ega kadrlar bilan ta'minlash;
- oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarining innovatsion g'oyalari, patent va ishlanmalaridan samarali foydalanish uchun investitsiyalar kiritish, venchur fondlarni jalb etish;
- erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari, texnoparklar, texnopolislar, klasterlar barpo etish;
- soliq imtiyozlarini taqdim etish;
- eksport va importni rivojlantirish.

Bizning fikrimizcha, mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning zamonaviy innovatsion boshqarishining ushbu va boshqa ko'plab vazifalari mintaqaning ilm-fan va innovasion kompleksi faoliyatining dolzarb muammolari, shuningdek, mahalliy darajada innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning amaldagi usullari samaradorligi nuqtayi nazaridan hal etilishi kerak.



2-rasm. Mintaqaviy innovatsion tuzilma[7]

Zamonaviy sharoitda alohida ahamiyatga ega bo'lgan hududiy innovatsion infratuzilma bir tomondan mintaqaning ilmiy va texnik jihatdan rivojlanishini ta'minlaydigan turli xil korxonalar va tashkilotlar majmui qatoriga kiradi, bir tomondan ular mintaqaviy innovatsion dasturlarni amalga oshiradilar[5].

Umuman olganda, mintaqaning innovatsion infratuzilmasi quyidagi kichik tizimlardan iborat bo'lgan tizim bo'lib, ko'plab qo'yi tizimlardan iborat bo'lishi mumkin(2- rasm):

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiya jarayonlari davlat tomonidan innovatsion g'oyani (uning ishlab shiqarishda amalga oshirilishiga qadar) va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan innovatsiyalarni qo'llash sohasidagi huquqiy tartibga solish sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Innovatsiya sohasida normativ hujjatlarni ishlab shiqishda ikkita maqsad aniq belgilanadi: 1) innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonini rag'batlantirish 2) iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining texnologik va moliyaviy hamkorligini mustahkamlash.

V. XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, mintaqaviy innovatsion tizimni shakllantirish, mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ularga xizmat qiluvchi institutlarning mavjudligi va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishining eng muhim omillardan hisblanadi. Shuningdek, institutlarning bosqishma-bosqish transformatsiyasi optimal holatning mavjudligini rad etadi va ular doimiy o'zgarishda bo'lishini talab qiladi. Bu esa institutlarning rivojlanishiga mos ravishda evolyutsion yo'l bilan doimiy ravishda rivojlantirish va tadqiq qilish lozimligini asoslaydi.

IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 24 июлдаги “Инновацион фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-630-сонли Қонуни // lex.uz/acts/4910391.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 майдаги “Иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларига инновацияларни жорий этиш механизмларини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3698-сонли Қарори - <https://lex.uz/uz/docs/3723561>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 1 апрелдаги “Илмий ва илмий инновацион фаолиятни ривожлантириш бўйича давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида” Фармони - <https://lex.uz/docs/5352267>.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-ПФ-165-сон Фармони // <https://lex.uz/docs/6102462>.
5. Гранберг А.Г., Валентей С.Д. Движение регионов России к инновационной экономике. Монография. – М.: Наука, 2006.
6. Кадыров А. М. «Инновационный потенциал развития промышленных предприятий республики в условиях рынка» // Научно-практическая конференция «Новое качество экономического роста: инновация, конкурентоспособность, инвестиции».-Т., 23 апреля 2008 г.
7. Калмуратов Б. С. Совершенствование инновационной инфраструктуры промышленности региона путем кластеризаций // Iqtisodiyot va ta’lim журнали // 2022-yil 2-son. 68-372 стр.
8. Калмуратов Б. С., Юсупова Ж. К. Организационно-экономический механизм инновационного управления промышленного комплекса// Бюллетень науки и практики. 2022. Т. 8. №3. С. 317-323 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/76/35>
9. Қалмуратов Б. С. Инновацион бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини ривожлантириш стратегияси (Қорақалпоғистон Республикаси мисолида) 08.00.13 – Менежмент (иқтисодиёт фанлари) Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси АВТОРЕФЕРАТИ// Тошкент 2019
10. Махкамова М.А. Формирование организационно-экономического механизма управления инновационной деятельностью на промышленных предприятиях Республики Узбекистан. Дисс.док. экон. наук. – Т.: 2004, – 291 с.
11. Нурымбетов Р.И., Игамова Ш.З. Инновационная деятельность на предприятиях строительных материалов// Давлат статистика кўмитаси хузуридаги Кадрлар малакасини ошириш ва статистик тадқиқотлар институтининг “Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2022 йил, 2-сон
12. Kropelnytska, S., Vusyatytska, M.. Institutional and financial support for regional innovation development based on cluster approach. Economic Annals-XXI, T. 2015 №3-4(2), 37-40.;
13. Makkonen, T., Inkinen,. Geographical and temporal variation of regional development and innovation in Finland. Fennia, 193(1), 134-147.; Ng,
14. B. K., Kanagasundram, T., Wong, C. Y., Chandran, V. G. R. Innovation for inclusive development in Southeast Asia: The roles of regional coordination mechanisms. Pacific Review, T. 2015 №29(4), 573-602.

15. Zarubin, V. I., Tkhakushinov, E. K. Management of innovation development system of regional economic: Project approach. World Applied Sciences Journal, 2014 №30(2), 191-194